



KRIMINALISTIKA TEXNIKASI YORDAMIDA VOQEYA JOYINI SUR'ATGA OLİSH TURLARI

Xursanov Furqat Alisher o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti “Yurisprudensiya” (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Mamanorov X.X

Ilmiy rahbar : Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti “Jinoyat huquqi va Fuqarolik protsessi” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Kriminalistik texnika yordamida voqeja joyini sur'atga olishning o'ziga xos xususiyatlari, kriminalistik texnikada sur'atga olishning tutgan o'rni, ushbu kriminalistik jarayonni yanada kuchaytirish bo'yicha takliflar.

Kalit so'zlar: sud fotografiyasi, sud-tergov fotografiyasi, sud-ekspert fotografiyasi, tezkor-qidiruv fotografiyasi, panoramali sur'atga olish, stereoskopik sur'atga olish, masshtabli, metric va reproduksiyaviy sur'atga olish, mo'ljalli, obzorli, markazli va detalli sur'atga olish, xalqaro tajribadan foydalanish, zamонавија texnologiya, ilmiy-amaliy tadbir.

Kriminalistika texnikasida voqeja joyini sur'atga olish jinoyatchilikka qarshi kurashda juda katta muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu kriminalistik jarayonni amalga oshirishda albatta Jinoyat-protsessual kodeks talablariga riosa qilish shart. Chunki kodeksda dalillarni yig'ishda muhim vosita hisoblansa, kriminalistikada esa qanday qilib amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini o'rgatadi. Kriminalistik fotografiya nafaqat tergov harakatlarida, sudda va tezkor-qidiruv faoliyatida ham qo'llaniladi. Ushbu sur'atga olingan narsalar albatta jinoyat-protsessual qonunchiligiga riosa qilingan holda rasmiylashtirilish shart. Voqeja joyini sur'atga olish hozirgi paytda jinoyat ishlarini ochish va fosh etishda, tadqiq etishda juda keng qo'llanilmoq¹da.

¹ Prezidentning "Raqamli kriminalistika sohasida ilimiyl tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi "qarori



Sur'atga olish ko'zdan kechirish va tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatida ko'proq amalga oshiriladi. Eng keng tarqalgan sur'atga olishlardan biri bu sud-tergov fotografiysi hisoblanadi. Ushbu fotografiya hodisa joyini ko'zdan kechirish, murdani, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari guvohlantirish, tintuv, eksperiment, tanib olish tergov harakatlarida qo'llanilib, dalillarni yig'ish va mustahkamlashda astoydil xizmat qiladi. Bu fotografiya sud-ekspert fotografiyasi va tezkor-qidiruv fotografiyasida ham foydalilaniladi. Ba'zi obyektlarni to'liq va keng burchakdan sur'atga olishning imkonи bo'limgan taqdirda panoramali sur'atga olish amalga oshiriladi. Unga ko'ra obyekt bo'laklarga bo'linib sur'atga olinadi. Masalan, katta hajmli obyektlar fotosuratga olishga imkon bermasa va birmuncha qiyinlashtirgan holatlarda ular mayda bo'laklarga bo'linib, kichik hajmga ajratilib, sur'atga olinadi. Har bir sur'at bir xil sharoitda sur'atga olinishi kerak, yorug'lik va masofalari o'xshash bo'lishi shart. Bir sur'at boshqa yorug'likda, boshqa sur'at esa boshqa yorug'likda olinishiga yo'l qo'yilmaydi. Bu ishni amalga oshirishga halaqit berishi mumkin. Stereoskopik sur'atga olish predmetlarni keng hajmda idrok etgan holda fotosur'atga oladi. Ushbu sur'atga olishda obyektlar bo'laklarga bo'linmasdan amalga oshiriladi. Fototasvirga olishning masshtabli turi obyektlarni sur'atga olishda ularning o'lchamini aniqlashga yordam beradi. Ya'ni ularning bo'yini, eni va uzunliklari aniqlanadi. Bu eng muhim fototasvirga olishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Reproduksiyaviy sur'atga olish obyektning yuzini kattalashtirib va kichiklashtirib fotosur'atga oladi. Bunda hujjatlar, chizmalar, rasmlar, qo'lda chizilgan rasmlar va boshqalarni hajmini o'zgartirgan holda ko'rish imkonini beradi. Bu xuddi mikroskop va lupaga o'xshab, kattalashtiradi va kichiklashtiradi. Tanib olish uchun sur'atga olinganda ba'zi bir qoidalarga rioya qilish shart. Bunda yuz tasviri natural kattaligiga amal qilish shart. Yuz tasviri haddan tashqari katta bo'lib ketmasligi lozim va ancha kichrayib ketmasligi kerak. Murdani tanib olish uchun sur'atga olishda sud-tibbiyat ekspertlari tomonidan amalga oshiriladi. Albatta, tanib olish uchun murdani qiyofasi bo'lish kerak va uni tiklash ishlarini olib borish shart, bo'lmasa uni tanib olish juda qiyin bo'ladi. Ko'p sodir bo'lgan jinoyatlarni ochishda ko'zdan kechirish chog'ida mo'ljalli sur'atga olish



tergovchi tomonidan juda ko'p qo'llaniladi. Bunda voqea sodir bo'lgan joyni tevarak-atrof bilan birga tushiriladi. Chunki voqeani tasvirlashda tevarak-atrofdagi holatlar ham katta o'rinni tutadi. Bu voqea sodir bo'lgan joyda obyektlar tashqi ko'rinishini tasvirlashda muhim ahamiyatga ega va uni boshqa voqealar bilan bog'lashda asqotadi. Ba'zi holatlarda keng joyni butun holati bo'yicha sur'atga olish imkonini bo'lmasa, ularni qismlarga bo'lib, panorama usulida fotosur'atga olinadi. Tergovchi jinoyat sodir bo'lgan joyni borib, ko'zdan kechirish chog'ida bиринчи bo'lib, obzorli tarzda sur'atga olishi kerak. Bunda voqea sodir bo'lgan joy dastlabki tarzida sur'atga olinadi. Bu bir qarashdan statik tarzda sur'atga olishga bir tomondan o'xshab ketadi.² Bunda voqea sodir bo'lgan joy to'la va mazmunli aks ettiriladi. Keyin, voqea sodir bo'lgan joy bilan jinoyat sodir bo'lgan joyning holati o'rganib chiqiladi. Bu esa o'sha yerdagi barcha narsalar bilan birma-bir tanishib chiqish imkonini beradi. Obzorli tekshiruvni olib borishda voqea joyini to'rt tomondan sur'atga olish maqsadga muvofiq. Ko'zdan kechirish chog'ida ba'zi obyektlarni ularning predmetlari bilan oldindan sur'atga olib qo'yish markazli sur'atga olishning muhim bosqichi hisoblanadi. Masalan, qotillik jinoyati bilan bog'liq murdani ko'rinishi, qon dog'lari, jinoyat qurollari, uning atrofidagi predmetlar, uning olgan tan jarohati va boshqa holatlari sur'atga olib qo'yiladi. Detalli sur'atga olishning asosiy maqsadi mayda va kichik detallarni fotosur'atga olishdir. Masalan, moslamalar, kalitlar qo'l izlari, o'q va gilzalardir. Bu vositalar jinoyat quroli sifatida jinoyatni ochishda katta o'rinni tutadi. Sud fotografiyasi sud bosqichida jinoyatni ochish va uni isbotlashda, dalillarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Sur'atga olingan narsalar albatta, son va raqamlar qo'yilgan holda rasmiylashtirilishi kerak.

Hozirgi kunda raqamli texnologiya yordamida jinoyatni ochish va fosh etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash juda katta ahamiyat kasb etadi. Buni hal etish uchun raqamli dalillar bilan ishslash texnikasini yanada kuchaytirish lozim. Chunki elektron dalilni olib saqlab qo'yish orqali unga hech kim zarar yetkaza olmaydi. Tabiiy holdagi dalillarni esa inson o'z qo'li bilan yo'q qilib yuborishi mumkin. Muhim vazifalardan yana biri kriminalistika sohasida yuqori va malakali

² Wikipedia. uz



mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshrib borish kerak. Bunday vazifalarni hal qilish uchun ilmiy-tadqiqot bazasini yanada kuchaytitish lozim va uni yaratish lozim. Mamlakatimizda jinoyatlarni ochish va hal etishda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va uni yanada kuchaytirish lozimdir. Yurtimizda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda innovatsion tadqiqotlar olib borish va ularni bugungi hayotga keng tatbiq etish kerak. Bunda biz ilg'or rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanishimiz lozim. Biz huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyat izlarini aniqlash, olib qo'yish, saqlash va tadqiqot ishlarini olib borishda kriminalistik jihatdan yordam berishimiz kerak. Ekspertiza sohasida fotosur'atga olishda zamonaviy texnika va vositalarni yaratish kerak va ularning barqarorligini ta'minlash lozim. Ayrim huquqni muhofaza qiluvchi organlarda zamonaviy texnika va texnologiyalar yetishmaydi va bu jinoyatlarni aniqlashda birmuncha qiyinchiliklarni tug'diradi. Fotosur'atga oluvchivositalar va apparatlarning turlari va sifati, sonini yanada oshirish lozimdir. Davlatlar o'rtaida o'tkaziladigan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va zarur bitim va konvensiyalar tuzish orqali ular bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash O'zbekistonning rivojlanshiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.³ Zarur hollarda xorijiy davlatlardan malakali kadrlarni olib kelish va bilim va ko'nikmalarni almashishga yordam beradi. Raqamli kriminalistika sohasida sud ekspertizasida fotosur'atga olishning usul va uslublarini ishlab chiqish va uni yanada takomillashtirish lozim. Tergov qilish jarayonida ko'plab muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va uni yuqori organga ko'rib chiqish va hal etish uchun kiritish lozim. Xorijdagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ham kriminalistik sohada voqeа joyida sur'atga olish mexanizmini yanada rivojlantiradi va yuksaltiradi.

Xulosa: Yuqorida keltirib o'tilgan takliflar va amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar yurtimizda kriminalistika fanida kriminalistik texnikaning yanada rivojlanishiga, jinoyatlarni tez ochish va hal etishni osonlashtiradi va yengillashtiradi.

³ LEX. uz



Yurtimizning jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida salohiyatini yanada oshiradi. Bu takliflar kriminalistika sohasini yanada kuchaytirishiga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Kriminalistika darslik 2018
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Raqamli kriminalistika sohasida ilmiytadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida “ qarori
- 3.Wikipedia.uz
- 4.LEX.UZ
- 5.econferenceseries.com